

VIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNATBOZORI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Qorao'zak tumanida 2022 yilning 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 53,6 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,3 ming kishiga yoki 100,6 foizga ko'paydi.

Doimiy aholisoni

(2021 yil 1 yanvar holatiga, mingkishi)

	Jamiaholi soni	Jamiaholisonidan:	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 948,5	954,3	994,2
Qorao'zak tumani	53,6	16,3	37,3
Ulushi, %	2,8	1,7	3,8

Shahar va qishloq aholisi tarkibi (foizda)



Shuningdek, 2022 yilning 1 yanvar holatiga Qorao'zak tumanida 51,2 % erkaklar va 48,8 % ayollar tashkil etgan. Demak, Qorao'zak tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	Kishi		o‘ <i>sis</i> h, kamayish	har 1000 aholiga, nisbatan	
	2020y.	2021y.		2020y.	2021y.
Tug‘ilganlar	1 037	1 051	14	19,6	19,7
O‘lganlar	247	249	2	4,7	4,7
<i>shu jumladan</i>					
1 yoshgacha bolalar o‘limi*	12	7	-5	12,0	11,2
Tabiiy o‘ <i>sis</i> h	790	802	12	14,9	15,0
Nikohlar	330	345	15	6,2	6,5
Ajralishlar	23	32	9	0,4	0,6


Tug‘ilish darajasi. 2021 yilning yanvar-dekabr holatiga Qorao‘zak tumanida tug‘ilganlar soni 1051 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (1037 kishi) nisbatan 14 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 19,7 promilleni tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (19,6 promille) nisbatan 0,1 promillega ko‘paydi.

Tug‘ilish darajasining Qorao‘zak tumanida (19,6 dan 19,7 promille)ga ko‘payganligi kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2021 yilning yanvar-dekabr holatiga Qorao‘zak tumanida o‘lganlar soni 249 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (247 kishi) nisbatan 2 taga o‘limlar soni ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,7 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-dekabrida 4,7 promille).


Tabiiy o‘*sis*h. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2021 yilning yanvar-dekabr holatiga Qorao‘zak tumanida 802 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (790 kishi) nisbatan 12 taga ko‘payganligini kuzatishimiz mumkin.

Yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar, o‘lganlar, tabiiy o‘shish nikoh va ajralishlar koeffitsiyenti



Nikoh va ajralishlar. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlarida 345 ta nikohlar va 32 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 6,5 ta nikoh (2020 yilning tegishli davrida 6,2 ta) va 0,6 ta ajralishlar (2020 yilning tegishli davrida 0,4 ta) to‘g‘ri keladi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti



Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiyasaldosi	
	2020y.	2021y.	2020y.	2021y.	2020y.	2021y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 778	11 826	12 517	18 590	-4 739	-6 764
Qorao'zak tumani	268	173	549	647	-281	-474
Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi, %	3,4	1,5	4,4	3,5	x	x

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 173 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 647 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 474 kishiga (2020 yilning shu davrida minus 281 kishi) teng bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

